

BOSHQA SHAXSLARGA YUBORISH QAT'IYAN TAQIQLANADI

MUHIM: davom etishdan avval quyidagilarni o'qib chiqishingiz shart. Quyidagilar ushbu sahifadan keyin ilova qilingan Mahalliy taklif hujjatiga (quyida ta'riflanganidek) nisbatan qo'llaniladi; shu sababli Mahalliy taklif hujjatini o'qish, unga kirish yoki undan boshqa tarzda foydalanishdan oldin buni diqqat bilan o'qib chiqishingiz tavsiya etiladi. Mahalliy taklif hujjatiga kirish orqali Siz bunday kirish natijasida "O'zbekiston Respublikasi Milliy investitsiya jamg'armasi" AJdan (keyingi o'rinlarda - "**Jamiyat**") har safar har qanday ma'lumot olganingizda quyidagi shartlar va qoidalarga, shu jumladan ularga vaqti-vaqti bilan kiritiladigan har qanday o'zgartirishlarga rioya etishga rozilik bildirasiz. Siz ushbu elektron jo'natma va Mahalliy taklif hujjatining yetkazib berilishi maxfiy ekanini hamda faqat Siz uchun mo'ljallanganini tan olasiz va ilova qilingan Mahalliy taklif hujjatini boshqa shaxsga nusxa ko'chirmaslik, yuklab olmaslik, yubormaslik, ko'paytirmaslik (to'liq yoki qisman), oshkor qilmaslik yoki e'lon qilmaslikka (elektron shaklda yoki boshqa tarzda) rozilik bildirasiz. Agar Siz ushbu elektron jo'natmaning mo'ljallangan oluvchisi bo'lmasangiz, ushbu elektron jo'natma yoki Mahalliy taklif hujjatidagi ma'lumotlarni tarqatmang yoki nusxa ko'chirmang; aksincha, ushbu elektron jo'natma va Mahalliy taklif hujjatining barcha nusxalarini o'chirib tashlang va yo'q qiling.

TAKLIF AKSIYALARI (QUYIDA TA'RIFLANGANIDEK) 1933-YILDAGI AQSH QIMMATLI QOG'OZLAR TO'G'RISIDAGI QONUNI, O'ZGARTIRISHLAR BILAN (keyingi o'rinlarda - "**QIMMATLI QOG'OZLAR TO'G'RISIDAGI QONUN**"), AQSHNING BIROR SHTATI YOKI BOSHQA YURISDIKSIYASINING QIMMATLI QOG'OZLARNI TARTIBGA SOLUVCHI HAR QANDAY ORGANIDA YOKI O'ZBEKISTONDAN TASHQARI BOSHQA HAR QANDAY YURISDIKSIYADA RO'YXATDAN O'TKAZILMAGAN VA O'TKAZILMAYDI HAMDA ULAR FAQAT O'ZBEKISTONDA REZIDENT BO'LGAN AYRIM INSTITUTSIONAL VA CHAKANA INVESTORLARGA VA "SOTISH CHEKLOVLARI" BO'LIMIDA BAYON ETILGANIDEK RUXSAT ETILGAN AYRIM BOSHQA YURISDIKSIYALARDA (1) QIMMATLI QOG'OZLAR TO'G'RISIDAGI QONUNNING REGULATION S QOIDASIDAGI 903-QOIDA YOKI 904-QOIDAGA MUVOFIQ, HAR BIR HOLDA AQSHNING HAR QANDAY SHTATINING AMALDAGI QIMMATLI QOG'OZLAR TO'G'RISIDAGI QONUNLARIGA MUVOFIQ, AQSH SHAXSLARI (QIMMATLI QOG'OZLAR TO'G'RISIDAGI QONUNNING REGULATION S QOIDASIDA TA'RIFLANGANIDEK) BO'LMAGAN VA AQSH SHAXSLARI NOMIDAN YOKI ULARNING FOYDASI UCHUN HARAKAT QILMAYOTGAN SHAXSLARGA OFFSHOR BITIMDA, YOKI QIMMATLI QOG'OZLAR TO'G'RISIDAGI QONUN VA AMALDAGI SHTAT YOKI MAHALLIY QIMMATLI QOG'OZLAR TO'G'RISIDAGI QONUNLARNING RO'YXATDAN O'TKAZISH TALABLARIDAN ISTISNO ASOSIDA YOKI ULARGA TAALLUQLI BO'LMAGAN BITIMDA VA (2) O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNLARI YOKI INVESTORGA NISBATAN QO'LLANILADIGAN HAR QANDAY BOSHQA TEGISHLI YURISDIKSIYA QONUNLARIGA MUVOFIQ TAKLIF AKSIYALARINI SOTIB OLISH HUQUQIGA EGA BO'LGAN YOKI TEGISHLI ISTISNOLAR ASOSIDA TAKLIF AKSIYALARI ULARGA TAKLIF ETILISHIGA RUXSAT ETILGAN (HOLATGA QARAB) SHAXSLARGA TAKLIF ETILISHI, SOTILISHI, GAROVGA QO'YILISHI YOKI BOSHQA TARZDA O'TKAZILISHI MUMKIN. TAKLIF AKSIYALARI FAQAT O'ZBEKISTONDAGI AYRIM INSTITUTSIONAL VA CHAKANA INVESTORLARGA HAMDA "SOTISH CHEKLOVLARI" BO'LIMIDA BAYON ETILGANIDEK RUXSAT ETILGAN AYRIM BOSHQA YURISDIKSIYALARDA TAKLIF ETILISHI VA SOTILISHI MUMKIN; BOSHQA HAR QANDAY YURISDIKSIYADA, JUMLADAN AQSH VA BUYUK BRITANIYADA, SHUNINGDEK AQSH SHAXSLARI BO'LGAN YOKI AQSH SHAXSLARI NOMIDAN YOKI ULARNING FOYDASI UCHUN HARAKAT QILAYOTGAN SHAXSLARGA (REGULATION SDA TA'RIFLANGANIDEK) TAKLIF ETILISHI YOKI SOTILISHI MUMKIN EMAS.

Sizning tasdig'ingiz. Ushbu Mahalliy taklif hujjatini elektron tarzda qabul qilish orqali Siz Alkes Research LLC (keyingi o'rinlarda - **"Alkes"**), Avesta Investment Group LLC (keyingi o'rinlarda - **"Avesta"**) va Bluestone Financial Group Inc LLC JV (keyingi o'rinlarda - **"Bluestone"**)ning har biriga (birgalikda, keyingi o'rinlarda - **"Menejerlar"**), Jamiyatga hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga (keyingi o'rinlarda - **"Sotuvchi aksiyador"**) quyidagilarni tasdiqlagan hisoblanasiz: (i) Siz AQSHdan tashqaridagi (Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunning Regulation S qoidasi ma'nosida) AQSH shaxsi bo'lmagan va AQSH shaxsi nomidan yoki uning foydasi uchun harakat qilmayotgan shaxs nomidan harakat qilyapsiz yoki shunday shaxssiz; va (ii) Siz joylashgan yurisdiksiya qonunlariga, shu jumladan O'zbekiston qonunlariga muvofiq, ushbu Mahalliy taklif hujjati Sizning egaligingizga qonuniy ravishda yetkazib berilishi mumkin bo'lgan shaxssiz. Har qanday Taklif aksiyalariga investitsiya kiritish orqali bunday investor quyida "Toshkent taklifi — AQSH investorlari uchun cheklovlar" bo'limida bayon etilgan o'tkazish cheklovlari buzilgan taqdirda, Jamiyat amaldagi O'zbekiston qonunchiligi va Ustav bo'yicha unga mavjud bo'lgan barcha huquq va himoya vositalarini, shu jumladan ayrim holatlarda Taklif aksiyalarining barchasini yoki bir qismini majburiy o'tkazish yoki qayta sotishni talab qilish huquqini amalga oshirishi mumkinligini tasdiqlagan, tan olgan va bunga rozilik bildirgan hisoblanadi.

Ushbu hujjat Jamiyat aksiyalarining taklif etilishi rejalashtirilayotgani bilan bog'liq ayrim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

USHBU HUJJAT TAKLIF AKSIYALARIDAN BOSHQA QIMMATLI QOG'OZLARNING, JUMLADAN JAMIYAT TOMONIDAN BIR VAQTNING O'ZIDA TAKLIF ETILISHI MUMKIN BO'LGAN HAR QANDAY GLOBAL DEPOZITAR TILXATLARNING TAKLIFIGA TAALLUQLI EMAS.

Ushbu hujjat (keyingi o'rinlarda - **"Mahalliy taklif hujjati"**) faqat Toshkent taklifi munosabati bilan axborot berish maqsadida tayyorlangan va Jamiyatning 2026-yil 9-apreldagi ro'yxatdan o'tkazish hujjati (keyingi o'rinlarda - **"Ro'yxatdan o'tkazish hujjati"**) bilan birga o'qilishi shart. Quyida "Ro'yxatdan o'tkazish hujjatidan foydalanish" bo'limiga qarang.

Ushbu Mahalliy taklif hujjati prospekt hisoblanmaydi va potensial investorlar investitsiya qarorini qabul qilishdan oldin ko'rib chiqishi lozim bo'lgan barcha ma'lumotlarni o'z ichiga olmaydi. Potensial investorlar har qanday investitsiya qarorini qabul qilishdan oldin Ro'yxatdan o'tkazish hujjatini to'liq o'qib chiqishlari lozim.

Investitsiya qarorini qabul qilishda investorlar Jamiyat va uning Portfel kompaniyalari (quyida ta'riflanganidek), Toshkent taklifi (quyida ta'riflanganidek) shartlari, shu jumladan uning afzalliklari va tavakkalchiliklari hamda bunday investitsiyaning o'z investitsiya maqsadlari va holatlariga muvofiqligi yuzasidan o'z tekshiruvi, surishtiruvi va tahliliga tayanishlari lozim.

Ushbu Mahalliy taklif hujjati Ro'yxatdan o'tkazish hujjati bilan birgalikda o'qilishi lozim.

Agar ushbu Mahalliy taklif hujjatida boshqacha ta'riflanmagan bo'lsa, bu yerda bosh harf bilan boshlangan atamalar Ro'yxatdan o'tkazish hujjatida ularga berilgan ma'nolarga ega.

Sana: 29-aprel 2026 yil.

TOSHKENT TAKLIFI

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY INVESTITSIYA JAMG‘ARMASI” AJ

(O‘zbekiston qonunlariga muvofiq tashkil etilgan va faoliyat yurituvchi, O‘zbekiston Yunusobod tumani Davlat xizmatlari markazida 2674165-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan aksiyadorlik jamiyati)

Jamiyat

O‘zbekiston qonunlariga muvofiq tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyati — “O‘zbekiston Respublikasi Milliy investitsiya jamg‘armasi” AJ.

Sotuvchi aksiyador

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.

Toshkent taklifi

Toshkent taklifi nominal qiymati har biri 5 so‘m bo‘lgan oddiy aksiyalarni (keyingi o‘rinlarda - “**Aksiyalar**”) O‘zbekistonda rezident bo‘lgan ayrim huquqli chakana va institutsional investorlarga hamda “**Sotish cheklovlari**” bo‘limida bayon etilganidek ruxsat etilgan ayrim boshqa yurisdiksiyalarda, har bir holatda AQSH shaxslari bo‘lmagan va AQSH shaxslari nomidan yoki ularning foydasi uchun harakat qilmayotgan shaxslarga offshor bitimlarda (Regulation Sda ta‘riflanganidek) taklif etishdan iborat (keyingi o‘rinlarda - “**Toshkent taklifi**”); bunday aksiyalar quyida batafsil bayon etilgan (keyingi o‘rinlarda - “**Taklif aksiyalari**”).

Taxminan 2026-yil 5-may kuni “Toshkent” respublika fond birjasi (keyingi o‘rinlarda - “**Toshkent fond birjasi**” yoki “**Savdo bozori**”) vaqti-vaqti bilan chiqariladigan Aksiyalarni UZNF belgisi ostida Toshkent fond birjasida savdoga qo‘yishga ruxsat berishi kutilmoqda. Toshkent fond birjasida Aksiyalar savdosi taxminan 2026-yil 18-mayda boshlanishi kutilmoqda.

Taklif aksiyalari 1933-yildagi AQSH Qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi qonuni, o‘zgartirishlar bilan (keyingi o‘rinlarda - “**Qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi qonun**”), bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilmagan va o‘tkazilmaydi hamda Taklif aksiyalari AQSHda yoki AQSH shaxslariga (Regulation Sda ta‘riflanganidek) Qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi qonun bo‘yicha ro‘yxatdan

Ushbu tarjima rasmiy tarjima hisoblanmaydi

o'tkazilmasdan yoki ro'yxatdan o'tkazishdan istisnosiz taklif etilishi yoki sotilishi mumkin emas.

Sotuvchi aksiyador, shuningdek, Jamiyatning oddiy aksiyalarini ifodalovchi global depozitar tilxatlar (keyingi o'rinlarda - "**GDTlar**") shaklida Aksiyalarni O'zbekistondan tashqaridagi ayrim institutsional investorlarga taklif etishni kutmoqda (keyingi o'rinlarda - "**Xalqaro taklif**"; Toshkent taklifi bilan birgalikda, "**Taklif**"). GDTlar London fond birjasining listingga kiritilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha asosiy bozorida savdoga qo'yilishi kutilmoqda. Sotuvchi aksiyador Taklif doirasida Taklif aksiyalari va GDTlar shaklida Jamiyat ustav kapitalining taxminan 30 foizini taklif qilmoqda.

Toshkent taklifida ajratiladigan Taklif aksiyalarining yakuniy soni Sotuvchi aksiyadorning mutlaq ixtiyoriga ko'ra belgilanadi.

Xodimlarning ishtiroki

"Franklin Templeton Asset Management" MChJ XK (keyingi o'rinlarda - "**Ishonchli boshqaruvchi**") boshqaruv jamoasining ayrim a'zolari hamda Ishonchli boshqaruvchi va Franklin Templetonning ayrim xodimlari, Ishonchli boshqaruvchi va Franklin Templetonning ichki siyosatlariga va ko'rsatmalariga rioya qilgan holda, Toshkent taklifida boshqa investorlar bilan bir xil shartlarda ishtirok etishlari mumkin; bunda ularga Ishonchli boshqaruvchi yoki Franklin Templetondagi mehnat faoliyati sababli hech qanday imtiyozli munosabat ko'rsatilmaydi. Ortiqcha obuna bo'lgan taqdirda, Ishonchli boshqaruvchi va Franklin Templeton xodimlariga Taklif aksiyalari Toshkent taklifidagi boshqa investorlar bilan bir xil shartlarda ajratiladi va ular hech qanday imtiyozli ajratma olmaydi. Ishonchli boshqaruvchi o'z xodimlarining Toshkent taklifidagi bunday ishtirokini nazorat qilish uchun tegishli ichki nazorat va monitoring tartiblarini joriy etgan hamda saqlab boradi.

Huquqli investorlar

Taklif aksiyalari faqat O'zbekistonda rezident bo'lgan ayrim institutsional va chakana investorlarga hamda "Sotish cheklovlari" bo'limida bayon etilganidek ruxsat etilgan ayrim boshqa yurisdiksiyalarda, har bir holatda (i) AQSH shaxslari bo'lmagan va AQSH shaxslari nomidan yoki ularning foydasi uchun harakat qilmayotgan shaxslarga (Regulation Sda ta'riflanganidek) offshor bitimlarda va (ii) O'zbekiston Respublikasi qonunlari yoki investorga nisbatan qo'llaniladigan har qanday boshqa tegishli yurisdiksiya qonunlariga muvofiq Taklif aksiyalarini sotib olish huquqiga ega bo'lgan yoki tegishli istisnolar asosida Taklif aksiyalari taklif etilishiga ruxsat etilgan (holatga qarab) shaxslarga taklif etiladi va sotiladi. Taklif aksiyalari faqat O'zbekistonda va "Sotish cheklovlari" bo'limida bayon etilganidek ruxsat etilgan ayrim boshqa yurisdiksiyalarda taklif etilishi yoki sotilishi mumkin; boshqa har qanday yurisdiksiyada, jumladan AQSH va Buyuk Britaniyada, shuningdek AQSH shaxslari bo'lgan yoki AQSH shaxslari nomidan yoki ularning foydasi uchun harakat qilayotgan shaxslarga (Regulation Sda ta'riflanganidek) taklif etilishi yoki sotilishi mumkin emas.

Quyidagi investorlar Toshkent taklifida ishtirok etish huquqiga ega emas:

- (i) Buyuk Britaniya rezidenti yoki fuqarosi bo'lgan har qanday jismoniy shaxs investor;
- (ii) AQSH shaxslari (1933-yildagi AQSH Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonuni, o'zgartirishlar bilan, Regulation S qoidasi ma'nosida) bo'lgan yoki ularning nomidan yoki foydasi uchun harakat qilayotgan shaxslar;
- (iii) Rossiya Federatsiyasi yoki Belarus Respublikasi fuqarosi bo'lgan har qanday shaxs (shu jumladan ikki yoki bir nechta fuqarolikka ega bo'lgan, ulardan biri yoki bir nechtasi Rossiya Federatsiyasi yoki Belarus Respublikasi fuqaroligi bo'lgan har qanday jismoniy shaxs);

Ushbu tarjima rasmiy tarjima hisoblanmaydi

(iv) Rossiya Federatsiyasi yoki Belarus Respublikasida yashovchi har qanday jismoniy shaxs;

(v) Rossiya Federatsiyasi yoki Belarus Respublikasida tashkil etilgan har qanday yuridik shaxs, tuzilma yoki organ;

(vi) Rossiya Federatsiyasi yoki Belarus Respublikasida tashkil etilgan har qanday yuridik shaxs, tuzilma yoki organning vakili sifatida harakat qilayotgan har qanday shaxs; yoki

(vii) har qanday Sanksiyalar bo'yicha cheklangan shaxs (quyida ta'riflanganidek).

“Sanksiyalar bo'yicha cheklangan shaxs” — Sanksiyalar (quyida ta'riflanganidek) nishoni bo'lgan yoki bunday shaxs tomonidan bevosita yoki bilvosita 50% yoki undan ko'proq ulushi egalik qilinadigan yoki nazorat qilinadigan shaxs; jumladan, cheklovsiz, (i) sanksiyalar bilan bog'liq ro'yxatga kiritilgani, yoki (ii) Sanksiyalangan mamlakat (quyida ta'riflanganidek) hukumati yoki unda doimiy yashovchi, tashkil etilgan, ro'yxatdan o'tgan, odatda rezident bo'lgan yoki faoliyat yurituvchi jismoniy yoki yuridik shaxs bo'lgani, yoki (iii) Venesuela hukumati bo'lgani sababli.

“Sanksiyalar” — har qanday Sanksiyalar organi (quyida ta'riflanganidek) tomonidan boshqariladigan va/yoki ijro etiladigan har qanday sanksiyalar, eksport nazorati yoki shunga o'xshash boshqa cheklov choralarini anglatadi.

“Sanksiyalar organi” — (i) Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashi; yoki (ii) AQSH, Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqi yoki Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatning tegishli davlat muassasalari va agentliklari, jumladan, cheklovsiz, AQSH Moliya vazirligining Xorijiy aktivlarni nazorat qilish boshqarmasi, AQSH Davlat departamenti, AQSH Savdo vazirligi va Buyuk Britaniya G'aznachiligini anglatadi.

Ushbu tarjima rasmiy tarjima hisoblanmaydi

“Sanksiyalangan mamlakat” — keng qamrovli Sanksiyalar predmeti bo‘lgan mamlakat yoki hududni anglatadi (hozirda bunday mamlakatlar yoki hududlar: o‘zini “Donetsk Xalq Respublikasi” deb atovchi hudud, o‘zini “Lugansk Xalq Respublikasi” deb atovchi hudud, Qrim, Ukrainaning Xerson yoki Zaporijjya viloyati, Kuba, Eron, Shimoliy Koreya yoki Suriya).

Toshkent taklifi Menejerlar tomonidan boshqariladi.

AQSH investorlari uchun cheklovlar

Jamiyatning roziligisiz Jamiyat Aksiyalari istalgan vaqtda Qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi qonunning Regulation S qoidasi ma‘nosidagi AQSH shaxslari tomonidan ushlab turilishi mumkin emas. Jamiyatning har qanday aksiyalariga investitsiya kiritish orqali bunday investor o‘zining Jamiyat aksiyalarini faqat (1) Qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi qonun va AQSHning qimmatli qog‘ozlarni taklif etish va sotishni tartibga soluvchi shtatlari, hududlari va mulklarining amaldagi qonunlariga rioya qilgan holda, AQSH shaxslari bo‘lmagan va AQSH shaxslari nomidan yoki ularning foydasi uchun harakat qilmayotgan shaxslarga (Qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi qonunning Regulation S qoidasi ma‘nosida) offshor bitimda va (2) O‘zbekiston Respublikasi qonunlari hamda bunday keyingi xaridor rezident bo‘lgan yoki bunday o‘tkazish amalga oshiriladigan har qanday boshqa yurisdiksiya qonunlari bo‘yicha aksiyalarni sotib olish huquqiga ega bo‘lgan shaxslarga taklif etishi, sotishi, garovga qo‘yishi yoki boshqa tarzda o‘tkazishini tasdiqlagan, tan olgan va bunga rozilik bildirgan hisoblanadi.

Har qanday Taklif aksiyalariga investitsiya kiritish orqali bunday investor yuqorida bayon etilgan o‘tkazish cheklovlari buzilgan taqdirda, Jamiyat amaldagi O‘zbekiston qonunchiligi va Ustav bo‘yicha unga mavjud bo‘lgan barcha huquq va himoya vositalarini, shu jumladan ayrim holatlarda Taklif aksiyalarining barchasini yoki bir qismini majburiy o‘tkazish yoki qayta

Ushbu tarjima rasmiy tarjima hisoblanmaydi

sotishni talab qilish huquqini amalga oshirishi mumkinligini tasdiqlagan, tan olgan va bunga rozilik bildirgan hisoblanadi.

Kutilayotgan jadval

Toshkent taklifi bo'yicha buyurtmalar kitobini shakllantirish jarayoni taxminan 2026-yil 29-aprelda boshlanishi va taxminan 2026-yil 12-mayda buyurtmalar kitobini shakllantirish davri yopilgunga qadar davom etishi kutilmoqda; shundan so'ng Sotuvchi aksiyador yakuniy ajratmalarni belgilaydi.

Aksiyalar bo'yicha Toshkent fond birjasida bitimlar boshlanishining kutilayotgan sanasi: taxminan 2026-yil 18-may.

Yuqoridagi jadval o'zgarishi mumkin. Unda ko'rsatilgan ayrim hodisalar Jamiyat, Sotuvchi aksiyador yoki Menejerlar nazoratidan tashqarida. Jamiyat va Sotuvchi aksiyador Menejerlar bilan kelishgan holda Toshkent taklifi bo'yicha yuqoridagi jadvalni o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Toshkent taklifining taklif etilayotgan jadvalidagi har qanday o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlar amaldagi qoidalarga muvofiq investorlarga xabar qilinadi.

Taklif narxi

Har bir Taklif aksiyasi uchun 4,65 so'm (keyingi o'rinlarda - "**Taklif narxi**").

Chegirma

Toshkent taklifida jismoniy shaxs bo'lgan investorlar 12 milliard so'mgacha (shu jumladan, 12 milliard so'mni ichiga olgan holda) bo'lgan har qanday buyurtmalar bo'yicha Taklif aksiyalari uchun Taklif narxidan 5% miqdorida chegirma olish huquqiga ega; bunday holda ushbu investorlar har bir Taklif aksiyasi uchun 4,41 so'm to'laydi (keyingi o'rinlarda - "**Chegirmali taklif narxi**"). Toshkent taklifida buyurtma (i) yuridik shaxslar tomonidan yoki (ii) jismoniy shaxslar tomonidan 12 milliard so'mdan ortiq miqdorda berilgan bo'lsa, Chegirmali taklif narxi bunday buyurtmaning biror qismiga nisbatan qo'llanilmaydi va bunday buyurtmaning butun miqdori bo'yicha Taklif narxi to'lanadi. Jamiyat ayni bir jismoniy

Ushbu tarjima rasmiy tarjima hisoblanmaydi

shaxsning alohida buyurtmalarini jamlash va agar bunday buyurtmalar 12 milliard soʻmdan oshsa, hech qanday chegirma qoʻllanilmasligini belgilash huquqini oʻzida saqlab qoladi.

Aksiyalar

Ushbu hujjat sanasida Jamiyatda 5 054 262 531 127 dona joylashtirilgan Aksiya mavjud boʻlib, ularning 5 054 262 531 127 donasi Sotuvchi aksiyadorga tegishli va toʻliq toʻlangan. Ushbu hujjat sanasida joylashtirilgan barcha Aksiyalar toʻliq toʻlangan.

Taklif aksiyalari

Taklif aksiyalari Jamiyat Aksiyalaridir.

Tushumlardan foydalanish

Toshkent taklifi doirasida taklif etilayotgan barcha Taklif aksiyalari Sotuvchi aksiyador tomonidan sotilmoqda. Jamiyat Sotuvchi aksiyador tomonidan Taklif aksiyalarini sotishdan tushadigan mablagʻlarning biror qismini olmaydi.

Listing va savdo

Taxminan 2026-yil 5-may kuni Toshkent fond birjasi vaqti-vaqti bilan chiqariladigan Aksiyalarni UZNF belgisi ostida Toshkent fond birjasida savdoga qoʻyishga ruxsat berishi kutilmoqda. Toshkent fond birjasiga ruxsat berilgan taqdirda ham, Aksiyalar Toshkent fond birjasida savdoga qoʻyilgan holda davom etishiga kafolat berilmaydi. Toshkent fond birjasida Aksiyalar savdosi taxminan 2026-yil 18-mayda boshlanishi kutilmoqda.

Toʻlov va hisob-kitob

Toshkent fond birjasida amalga oshirilgan Taklif aksiyalari boʻyicha bitimlar amaldagi Oʻzbekiston qonunchiligiga muvofiq kliring va hisob-kitob qilinadi. Pul hisob-kitoblari "Oʻzbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" aksiyadorlik jamiyati (Menejerlarga xizmat koʻrsatuvchi bank) va/yoki Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy qimmatli qogʻozlar depozitariysi (keyingi oʻrinlarda - "MQD") orqali amalga oshiriladi; qimmatli qogʻozlar boʻyicha hisob-kitoblar esa MQD va/yoki litsenziyalangan investitsiya vositachilari orqali amalga oshiriladi.

Taklif aksiyalarining qimmatli qogʻoz raqamlari

ISIN: UZA000004442
Qimmatli qogʻoz kodi: UZ7058980010

Ushbu tarjima rasmiy tarjima hisoblanmaydi

Xarajatlar va yig'imlar

Toshkent taklifi munosabati bilan Jamiyat, Sotuvchi aksiyador yoki Menejerlar tomonidan investorlar zimmasiga hech qanday komissiya, yig'im yoki xarajatlar yuklatilmaydi, agar qo'llanilsa, Menejerlar tomonidan undirilishi mumkin bo'lgan ayrim brokerlik yig'imlari bundan mustasno.

JAMIYAT

Umumiy ma'lumot

Jamiyat 2024-yil 24-dekabrda O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-maydagi O'RQ-370-son "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni (keyingi o'rinlarda - "**Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonun**") asosida tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyatidir. Jamiyat Yunusobod tumani Davlat xizmatlari markazida 2674165-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy investitsiya jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-303-son qarori (keyingi o'rinlarda - "**Prezidentning PQ-303-son qarori**")ga muvofiq tashkil etilgan.

Jamiyat O'zbekistonning investorlar uchun jozibadorligini oshirish, O'zbekiston iqtisodiyoti va kapital bozorlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, mamlakatga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni ko'paytirish, O'zbekiston nazorat qiladigan yirik kompaniyalar va tijorat banklarining transformatsiyasini jadallashtirish hamda uning portfel kompaniyalarida (keyingi o'rinlarda - "**Portfel kompaniyalari**") zamonaviy korporativ boshqaruv mexanizmlarini joriy etish maqsadida tashkil etilgan.

Jamiyat O'zbekiston qonunlariga muvofiq to'liq huquq layoqatiga ega alohida yuridik shaxs bo'lib, o'z ustavi (keyingi o'rinlarda - "**Ustav**") va amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan huquq va majburiyatlarga ega. Jamiyat cheklanmagan muddatga tashkil etilgan.

Jamiyatning bosh ofisi O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri 100000, Yunusobod tumani, Buyuk Turon MFY, Shahrizabz ko'chasi, 2-uy manzilida joylashgan. Jamiyat veb-sayti: <https://www.uznif.com>.

Maqsad va vazifalar

Ustavning amaldagi tahriri 2026-yil 22-aprelda qabul qilingan. Ustavga muvofiq, Jamiyat ayrim davlat korxonalaridagi ulushlarni sotib olish va Portfel kompaniyalari bilan bog'liq masalalarda ishtirok etish maqsadida tashkil etilgan investitsiya jamg'armasi sifatida faoliyat yuritadi.

Jamiyatning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Portfel kompaniyalarini samarali boshqarish, transformatsiya qilish va rivojlantirish orqali Jamiyat sof aktivlarining bozor qiymatini oshirish;
- Jamiyat aksiyalarini yetakchi xorijiy fond birjalarida joylashtirishga ko'maklashish;
- Portfel kompaniyalarida Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining korporativ boshqaruv standartlarini, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq moliyaviy hisobotni hamda ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv standartlarini joriy etish;
- har bir Portfel kompaniyasining samaradorligi va shaffofligini oshirish maqsadida Portfel kompaniyalarida innovatsion jarayonlar va texnologiyalarni ishlab chiqish hamda joriy etishni rag'batlantirish; va
- Portfel kompaniyalarining raqobatbardoshligi, rentabelligi va operatsion samaradorligini oshirish, moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda biznes jarayonlarini optimallashtirish.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda Jamiyat, jumladan, quyidagilarni amalga oshirishi mumkin:

- o'z nazoratidagi Portfel kompaniyalarining ijroiya organlari va kuzatuv kengashlariga tegishli malakaga ega mahalliy va xorijiy jismoniy shaxslarni jalb qilish;
- Portfel kompaniyalarini xususiylashtirishga tayyorlash va ularning investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish; va
- Portfel kompaniyalariga investitsiya kiritish uchun potensial investorlarni jalb qilish.

Kapital tuzilmasi va egalik

Jamiyat aksiyalari ro'yxatdan o'tkazilgan oddiy emissiyaviy qimmatli qog'ozlardir. Har bir aksiyaning nominal qiymati 5 so'm. Jamiyat Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonunga muvofiq qimmatli qog'ozlar chiqarishi mumkin, biroq amaldagi qonunchilikda boshqacha ruxsat etilmagan bo'lsa, imtiyozli aksiyalar, korporativ obligatsiyalar yoki infratuzilma obligatsiyalarini chiqarishi yoki joylashtirishi mumkin emas. Jamiyat Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonun talab qilgan hollardan tashqari o'z aksiyalarini qayta sotib olish majburiyatiga ega emas.

Mahalliy taklif hujjati sanasiga ko'ra, Jamiyat ustav kapitali 25 271 312 655 635 so'mni tashkil etadi va nominal qiymati har biri 5 so'm bo'lgan 5 054 262 531 127 dona oddiy aksiyaga bo'lingan. Mahalliy taklif hujjati sanasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Jamiyatning yagona aksiyadori hisoblanadi.

Aksiyadorlarning cheklangan javobgarligi

Ustavga muvofiq, aksiyadorlar Jamiyat majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va Jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar xavfini faqat o'zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida ko'taradilar.

Boshqaruv va korporativ boshqaruv

Ustaviga muvofiq, Jamiyatda uchta asosiy qaror qabul qiluvchi organ mavjud: Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, Kuzatuv kengashi va Boshqaruv. Yagona aksiyadorning 5-son qaroriga muvofiq, Boshqaruvning barcha vakolatlari 2025-yil 11-avgustdan e'tiboran Ishonchli boshqaruvchiga o'tkazilgan.

Moliyaviy hisobotlar va hisob yili

Jamiyat Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq tayyorlangan va xalqaro audit standartlariga muvofiq tashqi auditor tomonidan audit qilingan yillik moliyaviy hisobotlarni e'lon qilishi shart. Uning moliya yili 1-yanvarda boshlanadi va 31-dekabrda tugaydi.

Dividendlar va zaxira fondi

Jamiyat Dividend siyosatiga muvofiq choraklik yoki yillik natijalar asosida dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Hozirgi vaqtda Jamiyat dividendlar, agar mavjud bo'lsa, avvalgi yil uchun audit qilingan moliyaviy hisobotlari asosida yillik asosda e'lon qilinishini va birinchi yillik dividend to'lovi, agar mavjud bo'lsa, 2026-yil 31-dekabrda yakunlanadigan yilga nisbatan 2027-yilda to'lanishini kutmoqda; biroq u Ustav va amaldagi O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq choraklik natijalariga asoslanib ham dividendlar e'lon qilishi mumkin.

Har qanday dividend taklifi Kuzatuv kengashi va Ishonchli boshqaruvchining tavsiyasi asosida Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida ko'rib chiqiladi. Jamiyat holding kompaniya bo'lganligi sababli, uning dividend to'lash qobiliyati Portfel kompaniyalarining tegishli qonunchilik va shartnomaviy cheklovlarga muvofiq Jamiyatga dividendlar to'lash qobiliyatiga bog'liq. Agar amaldagi qonunchilik talab qilsa, Jamiyat ustav kapitalining kamida 15%i miqdorida zaxira fondini ham shakllantiradi.

Asosiy aktivlar

Umumiy ma'lumot

Jamiyatning asosiy aktivlari 13 ta Portfel kompaniyasidagi ulushlardan iborat. Ushbu Mahalliy taklif hujjati sanasiga ko'ra, Baholash hisobotlari (quyida ta'riflanganidek) asosida jami sof aktivlar qiymati (keyingi o'rinlarda - "**Jami SAQ**") 2 440,8 million AQSH dollarini tashkil etdi. Ushbu Mahalliy taklif hujjati sanasiga ko'ra, Jamiyat faqat O'zbekiston bozoriga ekspozitsiyaga ega.

Sof aktivlar qiymati va portfel tarkibi

Ushbu Mahalliy taklif hujjati sanasiga ko'ra, Jamiyatning aksiyadorlik ekspozitsiyasi Jami SAQning 100%ini tashkil etdi va uning portfeli to'rtta listingga kiritilgan kompaniya hamda to'qqizta listingga kiritilmagan kompaniyadagi ulushlarni o'z ichiga olgan 13 ta kompaniyadan iborat edi. Listingga kiritilmagan aksiyalar Jami SAQning 66,4%ini, listingga kiritilgan aksiyalar esa 33,6%ini tashkil etdi. O'zbekiston tovar-xom ashyo birjasi bundan mustasno, Jamiyat portfeli asosan O'zbekiston bozorida faoliyat yurituvchi, davlat nazoratidagi O'zbekiston kompaniyalaridan iborat edi.

Jami SAQ 2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra Katta To'rtlik (Big Four) mustaqil baholovchisi tomonidan har bir Portfel kompaniyasi uchun tayyorlangan baholash hisobotlariga (keyingi o'rinlarda - "**Baholash hisobotlari**") asoslanadi; bunda har bir investitsiya bo'yicha mavjud eng so'nggi moliyaviy ma'lumotlar, moliyaviy hisobot sanalari 2025-yil 30-sentabrdan 2025-yil 31-dekabrgacha bo'lgan oraliqda, asos qilib olingan. Baholashlar vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqiladi va o'zgarishi mumkin. Jamiyatning har bir Portfel kompaniyasidagi ulushi qiymati bunday ulush hajmini hisobga olgan holda diskontlanadi. 2026-yil 29-aprelda Hukumat O'zbekistonning elektr energetikasi va tabiiy gaz sektorlarida tartibga solinadigan aktivlar bazasi asosidagi tariflarni ("**RAB tariflari**") dastlabki joriy etish yuzasidan e'lon qildi ("**RAB e'loni**"). RAB e'lonida Jami NAVni aniqlash maqsadlarida foydalanilgan parametrlarning ayrimlaridan farq qiluvchi muayyan dastlabki parametrlar belgilangan.

Asosiy ulushlar

Ushbu Mahalliy taklif hujjati sanasiga ko'ra, Jamiyat portfeli quyidagi ulushlardan iborat edi:

- "Uzbekistan Airways" AJ (25%; 403,6 million AQSH dollari; Jami SAQning 16,5%i);
- "O'zbekgidroenergo" AJ (40%; 391,3 million AQSH dollari; 16,0%);
- "O'zbektelekom" AJ (30%; 370,9 million AQSH dollari; 15,2%);
- "Temiryo'linfratuzilma" AJ (40%; 363,4 million AQSH dollari; 14,9%);
- "Sanoat Qurilish Bank" AJ (40%; 328,0 million AQSH dollari; 13,4%);
- "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJ (40%; 155,0 million AQSH dollari; 6,4%);

Ushbu tarjima rasmiy tarjima hisoblanmaydi

- “Hududgazta’minot” AJ (40%; 151,3 million AQSH dollari; 6,2%);
- “O‘zbekiston Respublikasi tovar-xom ashyo birjasi” AJ (40%; 85,6 million AQSH dollari; 3,5%);
- “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ (25%; 75,2 million AQSH dollari; 3,1%);
- “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ (40%; 50,2 million AQSH dollari; 2,1%);
- ““Uzbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ (40%; 34,6 million AQSH dollari; 1,4%);
- “Toshshahartransxizmat” AJ (25%; 25,0 million AQSH dollari; 1,0%); va
- “O‘zsuvta’minot” AJ (40%; 6,6 million AQSH dollari; 0,3%).

Sektorlar bo‘yicha konsentratsiya

Ushbu Mahalliy taklif hujjati sanasiga ko‘ra, transport Jami SAQning 32,4%ini, undan keyin energiya ishlab chiqarish 19,1%ini, telekommunikatsiyalar 15,2%ini, kommunal xizmatlar 14,9%ini, bank sektori 13,4%ini va boshqa sektorlar 4,9%ini tashkil etdi.

Portfel ulushlarini saqlab qolish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentabrdagi, o‘zgartirishlar bilan, PQ-289-son qaroriga muvofiq, Portfel kompaniyalaridagi O‘zbekiston Respublikasi ulushlari, jumladan xalqaro moliya institutlarining konvertatsiya qilinadigan kreditlarini konvertatsiya qilish natijasida oshgan holatlarda, bunday Portfel kompaniyalarining tegishli miqdordagi aksiyalari Jamiyatga o‘tkazilishi lozim, shunda uning bunday Portfel kompaniyalaridagi mavjud ulushlari saqlab qolinadi. Biroq ushbu qoidalar barcha holatlarda amal qilishiga yoki bunday aksiyalar o‘tkazilishi o‘z vaqtida sodir bo‘lishiga hech qanday kafolat yo‘q.

Rejalashtirilgan takliflar va realizatsiyalar

2025-yil 21-apreldagi 145-son Farmon, o‘zgartirishlar bilan, (keyingi o‘rinlarda - “**145-son Farmon**”) doirasida O‘zbekiston Respublikasi Hukumati (keyingi o‘rinlarda - “**Hukumat**”) keyingi ikki yil ichida oltita Portfel kompaniyasi — “Uzbekistan Airways” AJ, “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ, “O‘zbektelekom” AJ, “O‘zbekgidroenergo” AJ, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ va “Hududgazta’minot” AJ bo‘yicha birlamchi ommaviy takliflarni o‘tkazish rejalarini belgilagan. Bundan tashqari, Hukumatning “O‘zbekiston — 2030” strategiyasiga (2026-yil fevralida qayta bayon etilganidek) muvofiq, 2030-yilgacha “Sanoat Qurilish Bank” AJning aksiyalarining ommaviy taklifi yoki strategik sotilishi kutilmoqda.

TUSHUMLARDAN FOYDALANISH

Toshkent taklifi doirasida taklif etilayotgan barcha Aksiyalar Sotuvchi aksiyador tomonidan sotilmoqda. Jamiyat Sotuvchi aksiyador tomonidan Taklif aksiyalarini sotishdan tushadigan mablag'larning biror qismini olmaydi.

DIVIDEND SIYOSATI

Jamiyat e'lon qilishi mumkin bo'lgan har qanday dividendni Kuzatuv kengashi (keyingi o'rinlarda - **"Kuzatuv kengashi"**)ning 2026-yil 23-apreldagi qarori bilan qabul qilingan dividend siyosatiga (keyingi o'rinlarda - **"Dividend siyosati"**), Ustavga va amaldagi O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq tasdiqlaydi va taqsimlaydi. Dividend siyosati Ishonchli boshqaruvchi tomonidan dividendlar to'lash va, tegishli hollarda, aksiyadorlarga qiymatni qaytarishning boshqa qonuniy usullari (shu jumladan aksiyalarni qayta sotib olish) bo'yicha Kuzatuv kengashiga tavsiyalar shakllantirishda qo'llaniladigan tamoyillarni belgilaydi. Jamiyat 31-martda tugagan uch oylik davr, 30-iyunda tugagan olti oylik davr, 30-sentabrda tugagan to'qqiz oylik davr yoki 31-dekabrda tugagan 12 oylik davr natijalari asosida dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

Hozirgi vaqtda Jamiyat dividendlar, agar mavjud bo'lsa, Jamiyatning avvalgi yil uchun audit qilingan moliyaviy hisobotlari asosida yillik asosda e'lon qilinishini va uning birinchi yillik dividend to'lovi, agar mavjud bo'lsa, 2026-yil 31-dekabrda yakunlanadigan yilga nisbatan 2027-yilda amalga oshirilishini kutmoqda. Bundan tashqari, Jamiyat hozirgi vaqtda dividendlar asosan tegishli yil uchun audit qilingan yillik moliyaviy hisobotlar asosida yillik asosda ko'rib chiqilishi va, tegishli hollarda, e'lon qilinishini kutmoqda; biroq Jamiyat Ustav va amaldagi O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq choraklik natijalariga asoslanib ham dividendlar e'lon qilishi mumkin.

Har qanday dividend taklifi Jamiyatning aksiyadorlar yillik umumiy yig'ilishida (keyingi o'rinlarda - **"Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi"**) Kuzatuv kengashi va Ishonchli boshqaruvchining tavsiyasi asosida ko'rib chiqiladi. Dividendlarni e'lon qilish va to'lash to'g'risidagi har qanday qaror amaldagi qonun va tijorat omillariga bog'liq. Dividend siyosatiga muvofiq, favqulodda bozor sharoitlari yoki holatlar mavjud bo'lmaganida hamda O'zbekistonda jozibador va qiymatni oshiruvchi investitsiya imkoniyatlari mavjud bo'lmaganida, shuningdek O'zbekiston qonunlari yoki qoidalari bo'yicha har qanday cheklovlar va mavjud moliyalashtirish manbalariga rioya qilgan holda, taqsimlash uchun taklif etiladigan summa odatda Jamiyatning Portfel kompaniyalaridan olgan yillik dividend daromadi (maxsus pul taqsimotlari bundan mustasno) va pul qoldiqlari bo'yicha foizlar yig'indisidan operatsion, moliyalashtirish va soliq xarajatlari hamda amaldagi qonun va qoidalar bo'yicha zaxiralarga majburiy ajratmalarni chegirgan holda hisoblanadi.

Dividendlar Jamiyat Aksiyalari egalari to'lanadi; g'aznachilik aksiyalari dividend olish huquqlarini bermaydi. Dividend olish huquqi dividend taqsimoti tasdiqlanadigan Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi uchun MQD tomonidan shakllantirilgan Aksiyadorlar reestriga qarab aniqlanadi. Dividendlar har bir aksiya bo'yicha to'lanadi va Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining tegishli qarori qabul qilingan kundan boshlab 60 kun ichida to'lanadi. Dividendlar tegishli Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorida belgilanganidek, har qanday amaldagi qonuniy cheklovlarga rioya qilgan holda, naqd pul yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari bilan to'lanadi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining tegishli qarori va amaldagi O'zbekiston qonunchiligiga rioya qilgan holda, Aksiyalar bo'yicha dividendlar MQD yoki investitsiya vositachilari orqali O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining "Qimmatli qog'ozlar daromadlari (dividendlar, foizlar) to'lovlarini "Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi" AJ va (yoki) investitsiya vositachilari orqali amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'iga (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 28-iyunda 3523-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) (keyingi o'rinlarda - **"To'lov nizomi"**) muvofiq to'lanishi mumkin. Jamiyat dividendlarni MQD yoki investitsiya vositachisi orqali taqsimlashni belgilaydi. Amaliyotda aksariyat kompaniyalar

dividendlarni MQD orqali to'lashni tanlaydi, chunki investitsiya vositachisi ko'p sonli aksiyadorlar uchun to'lovlarni qayta ishlash imkoniyatiga ega bo'lmasligi mumkin. Shu sababli quyidagi bandlarda MQD orqali dividendlarni to'lash jarayonining umumiy tavsifi beriladi.

MQD orqali to'lov Jamiyat bilan tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi. To'lov nizomiga muvofiq, MQD orqali dividendlarni to'lash jarayoni quyidagicha ishlaydi:

(i) dividendlar to'lash to'g'risidagi qaror qabul qilingan kundan boshlab o'n (10) kun ichida Jamiyat dividendlarni hisoblash va to'lash maqsadida aksiyadorlar reestrini shakllantirish bo'yicha MQDga yozma topshiriq beradi;

(ii) bunday topshiriq olinganidan keyin ikki (2) ish kuni ichida MQD amaldagi soliqlarni hisoblash imkonini berish uchun aksiyadorlar reestrini tuzadi va Jamiyatga taqdim etadi;

(iii) Jamiyat va MQD o'rtasida to'lov agenti xizmatlari shartnomasi bo'yicha kelishilgan muddatda hamda amaldagi soliqlar hisoblab chiqilgan va to'langandan so'ng, Jamiyat to'lanishi lozim bo'lgan aniq summalarni ko'rsatgan reestrni MQDga taqdim etadi va dividendlarning umumiy summasini MQDning hisob-kitob hisobvarag'iga o'tkazadi;

(iv) bunday mablag'lar olinganidan so'ng tegishli summalarni aksiyadorlarga keyingi o'tkazish majburiyati to'lov agenti sifatidagi MQDga o'tadi; va

(v) dividendlarning umumiy summasi olinganidan so'ng, MQD to'lov agenti sifatida jismoniy shaxs aksiyadorlarga tegishli summalarni ikki (2) ish kuni ichida, yuridik shaxs aksiyadorlarga esa uch (3) ish kuni ichida o'tkazadi.

Jamiyatning dividendlar to'lash majburiyati dividendlarning umumiy summasi MQDga o'tkazilgan paytdan boshlab to'liq bajarilgan deb hisoblanadi.

Jamiyat holding kompaniya bo'lganligi sababli, uning dividend to'lash qobiliyati Portfel kompaniyalarining tegishli qonunchilik va shartnomaviy cheklovlarga muvofiq unga dividendlar to'lash qobiliyatiga bog'liq. Boshqa omillar qatorida, ushbu Portfel kompaniyalari tomonidan dividendlar to'lanishi ularning o'z daromadlari, pul oqimlari va taqsimlanadigan zaxiralarining yetarliligiga bog'liq. Prezidentning PQ-303-son qaroriga muvofiq, 2030-yilgacha Portfel kompaniyalarining sof foydasining kamida 50%i tegishli yil natijalari asosida va amaldagi qonunchilikka rioya qilingan holda dividend sifatida taqsimlanishi lozim.

Jamiyat quyidagi hollarda dividendlar to'lash va dividendlar to'lash to'g'risida qarorlar qabul qilish huquqiga ega emas: (i) tashkil etilganda Jamiyat ustav kapitali to'liq to'lanmaguncha, (ii) har qanday dividendlar to'lanayotgan vaqtda Jamiyatning to'lovga qobiliyatsizlik belgilari mavjud bo'lsa yoki bunday dividendlar to'lanishi natijasida bunday belgilar paydo bo'lsa va (iii) Jamiyat sof aktivlari qiymati uning ustav kapitali va zaxira fondi umumiy miqdoridan kam bo'lsa.

Kelgusida Jamiyat tomonidan dividendlar e'lon qilingan va to'langan darajada, dividend qarori qabul qilingan Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi uchun shakllantirilgan Aksiyadorlar reestrda qayd etilgan Taklif aksiyalari egalari Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonun, Ustav va yuqorida bayon etilgan amaldagi dividend to'lash tartiblariga muvofiq bunday Taklif aksiyalari bo'yicha dividendlar olish huquqiga ega bo'ladi. Taklif aksiyalari bo'yicha dividendlar barcha Aksiya egalari mutanosib (pro rata) asosida taqsimlanadi. Dividendlar so'mda to'lanadi. To'lovlar Jamiyat tomonidan belgilangan tartiblar va amaldagi qonunchilikka muvofiq aksiyadorlarga amalga oshiriladi. Agar aksiyadorning bank rekvizitlari dolzarb bo'lmasa yoki taqdim etilmagan bo'lsa, tegishli ma'lumot taqdim etilgunga

Ushbu tarjima rasmiy tarjima hisoblanmaydi

qadar to'lov kechiktirilishi mumkin. Norezident aksiyadorlar dividend to'lovlarini erkin konvertatsiya qilinadigan valyutaga konvertatsiya qilish va o'zlari ko'rsatgan bank hisobvarag'iga o'tkazishni so'rashlari mumkin. Bunday so'rovlar yozma shaklda berilishi va amaldagi O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq talab qilinadigan hujjatlar bilan birga taqdim etilishi lozim. Talab qilinadigan hujjatlar taqdim etilishi va tegishli bank tartib-taomillari yakunlanishi sharti bilan, hisoblangan dividendlarning erkin konvertatsiya qilinadigan valyutaga konvertatsiya qilinishi va konvertatsiya qilingan summalarning norezident aksiyador ko'rsatgan bank hisobvarag'iga o'tkazilishi ta'minlanadi.

Jamiyat, shuningdek, Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonunda aniq ruxsat etilgan holatlarda, aksiyadorlariga qiymatni dividenddan boshqa vositalar bilan, jumladan Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yoki ayrim hollarda Kuzatuv kengashi qarori asosida Aksiyalarni qayta sotib olish orqali qaytarishi mumkin.

TAVAKKALCHILIK OMILLARI XULOSASI

Aksiyalarga investitsiya kiritish tavakkalchilik bilan bog'liq. Potensial investorlar har qanday investitsiya qarorini qabul qilishdan oldin Ro'yxatdan o'tkazish hujjatini to'liq o'qib chiqishlari hamda unda bayon etilgan tavakkalchilik omillarini, boshqa masalalar qatorida, diqqat bilan ko'rib chiqishlari lozim. Quyidagilar Ro'yxatdan o'tkazish hujjatida keltirilgan tavakkalchilik omillarining faqat xulosasi bo'lib, Jamiyat, uning investitsiyalari, Taklif aksiyalari, Toshkent taklifi va O'zbekiston bilan bog'liq barcha tavakkalchiliklarni aks ettirmaydi.

Jamiyatga oid tavakkalchiliklar

Jamiyat O'zbekistondagi rivojlanib borayotgan huquqiy va tartibga solish muhitida faoliyat yuritadi. Qonunchilikdagi tez-tez o'zgarishlar, qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasidagi nomuvofiqliklar hamda vakolatli organlar tomonidan ularning izchil qo'llanmasligi Jamiyat, Portfel kompaniyalari, Ishonchli boshqaruvchi va Aksiyalar natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Jamiyatning xodimlari yo'q va u o'z ijro funksiyalarini bajarish uchun uchinchi shaxs xizmat ko'rsatuvchilarga, xususan Ishonchli boshqaruvchiga tayanadi. Jamiyatning o'z investitsiya siyosatini amalga oshirish qobiliyati Ishonchli boshqaruvchi va uning boshqaruv jamoasining tajribasi hamda uzluksizligiga sezilarli darajada bog'liq. Ishonchli boshqaruvchi yoki boshqa xizmat ko'rsatuvchilarning o'z majburiyatlarini bajarmasligi yoki zarur bo'lsa, almashtiruvchi investitsiya menejerini tayinlashdagi har qanday kechikish Jamiyatning biznesi, operatsion natijalari va istiqbollariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Jamiyat o'z pul mablag'lari saqlanayotgan banklarning to'lovga qobiliyatsizlik xavfiga ham duchor. Bank to'lovga qobiliyatsiz bo'lgan taqdirda, Jamiyat o'z depozitlarining bir qismini yoki barchasini qaytara olmasligi mumkin.

Ishonchli boshqaruvchi va uning affillangan shaxslari boshqa mijozlar uchun harakat qilishi yoki o'xshash yoki turlicha investitsiya maqsadlariga ega boshqa fondlarni boshqarishi mumkinligi sababli manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin. Ishonchli boshqaruvchi bunday to'qnashuvlarni aniqlash va boshqarish siyosatlarini qabul qilgan bo'lsa-da, ushbu siyosatlarning lozim darajada qo'llanmasligi Jamiyat va uning investitsiya maqsadlariga erishish qobiliyatiga muhim salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Jamiyatning yagona aksiyadori sifatida O'zbekiston Respublikasiga oid tavakkalchiliklar

O'zbekiston Respublikasi tarixan Jamiyatdagi aksiyalarga egaligi va Kuzatuv kengashidagi vakilligi orqali Jamiyat faoliyatini nazorat qilib kelgan. Taklifdan darhol oldin O'zbekiston Respublikasi (Sotuvchi aksiyador orqali) Jamiyatdagi ovoz beruvchi aksiyalarning 100%iga egalik qilgan. Kuzatuv kengashining to'rt a'zosining barchasi O'zbekiston Respublikasi tomonidan Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori orqali nomzod sifatida ko'rsatilgan va tayinlangan bo'lib, ushbu Mahalliy taklif hujjati sanasida ularning barchasi turli davlat organlari vakillaridir. Mustaqil kengash a'zosi o'zni hozirda vakant. Taklif yakunlangandan so'ng O'zbekiston Respublikasi Jamiyatdagi ovoz beruvchi aksiyalarning taxminan 70%iga egalik qilishi kutilmoqda va aksiyador sifatida Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori orqali Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash huquqini saqlab qoladi. Jamiyat samarali korporativ boshqaruvni ta'minlash uchun keng qamrovli asos, jumladan Korporativ boshqaruv qoidalari va Korporativ boshqaruv kodeksini (har biri Ro'yxatdan o'tkazish hujjatida ta'riflanganidek) joriy etgan bo'lsa-da, O'zbekiston Respublikasi boshqa aksiyadorlar manfaatlariga

mos keladigan masalalarni tasdiqlamaslikni tanlashi mumkin bo'lgan holatlarda potensial to'qnashuvlar yuzaga kelishi mumkin. Jamiyatning eng yirik aksiyadori sifatida O'zbekiston Respublikasi Jamiyat faoliyati ustidan, shu jumladan ayrim istisnolarni hisobga olgan holda, aksiyadorlar ovoziga qo'yiladigan deyarli barcha masalalar natijasini belgilashda sezilarli nazoratni amalga oshira olgan va Taklifdan keyin ham bunday nazoratni davom ettirishi kutilmoqda. Bu O'zbekiston Respublikasining Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida Investitsiya siyosati va Deklaratsiya bayonotiga (Ro'yxatdan o'tkazish hujjatida ta'riflanganidek) o'zgartirishlarni bir tomonlama tasdiqlashini ham o'z ichiga olishi mumkin. Aksiyalarga egaligi va Kuzatuv kengashiga tayinlagan shaxslaridan tashqari, O'zbekiston Respublikasi o'z tartibga solish, soliq va qonunchilik vakolatlari orqali Jamiyat faoliyatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Suveren subyekt sifatida O'zbekiston Respublikasining manfaatlari xususiy investorlar manfaatlari bilan mos kelmasligi mumkin. Xususan, O'zbekiston Respublikasi bandlikni oshirish yoki loyihalarni va/yoki boshqa davlat korxonalari yoxud boshqa subyektlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosatlar kabi milliy va mintaqaviy manfaatlarni ilgari suradigan siyosatlarni qo'llab-quvvatlashi mumkin, bu boshqa aksiyadorlar manfaatlari bilan ziddiyatga kirishishi mumkin. Amaliyotda egalikning bunday konsentratsiyasi minoritar aksiyadorlarning ta'sirini cheklashi va Jamiyatning mustaqil korporativ boshqaruv siyosatlarini qabul qilish qobiliyatini toraytirishi mumkin. Kelgusida davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash uchun amalga oshiriladigan harakatlar boshqa aksiyadorlar manfaatlari salbiy ta'sir ko'rsatishi yoki Jamiyatning biznesi, moliyaviy holati, operatsion natijalari va istiqbollari muhim salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari, davlat organlari vaqti-vaqti bilan, jumladan Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari shaklida, Jamiyat va/yoki Portfel kompaniyalaridan O'zbekiston Respublikasi, davlatga tegishli yoki davlat nazoratidagi subyektlar yoki boshqa bog'liq shaxslar bilan bozor shartlariga mos kelmasligi mumkin bo'lgan shartlarda bitimlar tuzishni talab qiladigan qarorlar qabul qilishi mumkin.

2024-yil 18-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Hukumatdan Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (keyingi o'rinlarda - "**UzSAMA**") orqali Toshkent teleminorasi egasi va operatori bo'lgan "Radioaloqa Radioeshittirish Va Televidenie Markazi" MChJdagi 100% ulushni Uzbektelecomga Uzbektelecomning yangi aksiyalari evaziga o'tkazishni talab qiluvchi qaror qabul qildi (keyingi o'rinlarda - "**Minora bitimi**"). Agar Minora bitimi yakunlansa, "O'zbektelekom" AJ tomonidan taxminan 1,9 trillion so'm qiymatidagi yangi aksiyalar chiqariladi. Agar bunday aksiyalar UzSAMA yoki O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga chiqarilsa, quyida bayon etilgan, o'zgartirishlar bilan 2025-yil 19-sentabrdagi Prezidentning PQ-289-son qarori bilan Jamiyatga berilgan ulushni kamaytirishga qarshi himoya bo'lmagan taqdirda, Jamiyatga ta'siri uning "O'zbektelekom" AJdagi egalik ulushining 30%dan 10%gacha kamayishidan iborat bo'ladi. Minora bitimi "O'zbektelekom" AJ uchun "yirik bitim" hisoblanadi va "O'zbektelekom" AJ direktorlar kengashining yakdil ma'qullashini va/yoki umumiy aksiyadorlar yig'ilishining malakali ko'pchilik ovozi bilan ma'qullashini talab qiladi. Biroq bunday ma'qullash olinmagan. Bundan tashqari, Minora bitimini yakunlash uchun Uzbektelecom umumiy aksiyadorlar yig'ilishining quyidagi ma'qullashlari talab etiladi: (i) aksiyalar ko'rinishidagi qarshi ijroni imtiyozli sotib olish huquqisiz chiqarishni oddiy ko'pchilik ovozi bilan ma'qullash va (ii) aksiyalar chiqarilishini aks ettirish uchun Uzbektelecom ustaviga o'zgartirish kiritishni malakali ko'pchilik ovozi bilan ma'qullash. Jamiyat yuqoridagi (i) bandda ko'rsatilgan qarorga qarshi ovoz berdi va u qabul qilinmadi. Bundan tashqari, Uzbektelecomda bloklovchi ulushni saqlab turgan Jamiyat, agar Minora bitimi Jamiyat va uning aksiyadorlari manfaatlari eng mos keladi degan xulosaga kelmasa, yuqoridagi (ii) bandda ko'rsatilgan qarorga qarshi ovoz berishni niyat qilmoqda. Agar Minora bitimi zarur ma'qullashlar olinmasdan yakunlansa,

Jamiyat uni bekor qilish uchun barcha zarur huquqiy choralarni ko'rib chiqadi. Bundan tashqari, davlat organlari kelgusida Jamiyatdan yoki bir yoki bir nechta Portfel kompaniyalaridan qo'shimcha aktivlar yoki ulushlarni sotib olishni, bir yoki bir nechta kompaniyadagi ulushlarni realizatsiya qilishni yoki o'tkazishni yoxud Jamiyat portfeli tarkibini boshqacha tarzda o'zgartirishni talab qilmasligiga hech qanday kafolat yo'q. Shuningdek, Minora bitimi yoki boshqa bunday bitimlar bozor shartlariga mos shartlarda amalga oshirilishiga hech qanday kafolat yo'q. Minora bitimi va boshqa bunday bitimlar Jamiyatning biznesi, moliyaviy holati va operatsion natijalariga hamda Aksiyalarning bozor narxiga muhim salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Jamiyat investitsiyalariga oid tavakkalchiliklar

Jamiyat investitsiyalari cheklangan sondagi Portfel kompaniyalari va sektorlarda jamlangan. Natijada, Jamiyatning natijalari va SAQi cheklangan sondagi aktivlarning natijalariga hamda Portfel kompaniyalari faoliyat yuritadigan tarmoqlardagi, jumladan transport, bank, elektr energiyasi ishlab chiqarish va taqsimlash, gaz taqsimlash va telekommunikatsiyalar sohalaridagi sharoitlarga juda sezgir.

Portfel kompaniyalari sektoriga xos tavakkalchiliklarga duchor. Bular, jumladan, aviatsiya sektorida raqobat, yuqori doimiy xarajatlar, mavsumiylik va makroiqtisodiy sezgirlik; temiryo'l sektorida operatsion hodisalar, infratuzilma nosozliklari, moliyalashtirish cheklovlari va iqlim bilan bog'liq xatarlar; bank sektorida makroiqtisodiy shoklar, moliyalashtirish mavjudligi va aktivlar sifati bosimlari; elektr energiyasini ishlab chiqarish va taqsimlash sektorida operatsion nosozliklar, yoqilg'i ta'minoti va narxlash xatarlari, tariflarni tartibga solish, kapital xarajatlar talablari, ekologik standartlar va mavsumiy talab tebranishlari; gaz taqsimlash sektorida ishlab chiqarish, iste'mol, narx, ekologik va operatsion tavakkalchiliklar; telekommunikatsiyalar sektorida texnologik o'zgarishlar, tizim nosozliklari, kiberxavfsizlik tahdidlari, kapital xarajatlar talablari va tartibga solish tavakkalchiliklarini o'z ichiga oladi.

Jamiyat har bir Portfel kompaniyasida minoritar ulushlarga ega va shu sababli ularning nazorat qiluvchi aksiyadorlari va boshqa manfaatdor tomonlari hamkorligisiz ularga nisbatan o'z strategiyasini, jumladan kelajakdagi listinglarni amalga oshirishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Bundan tashqari, 145-son Farmon bo'yicha ayrim Portfel kompaniyalarining birlamchi ommaviy takliflariga oid rejalar Jamiyat nazoratidan tashqarida bo'lib, o'zgartirilishi, kechiktirilishi yoki umuman amalga oshirilmasligi mumkin.

Jamiyat SAQi uning investitsiyalari qiymatidagi o'zgarishlar, taqsimotlar, dividendlar, foizlar yoki operatsion xarajatlar natijasida tebranishi mumkin. Bunday tebranishlar Aksiyalarning bozor narxida o'zgaruvchanlikka olib kelishi mumkin.

Jamiyat har qanday Portfel kompaniyasining to'lovga qobiliyatsizligi, tugatilishi, bekor qilinishi, qayta tashkil etilishi yoki bankrotligi xavfiga ham duchor. Bunday holatlarda tegishli Portfel kompaniyasining kreditorlari odatda aksiyadorlardan ustun turadi va Jamiyat o'z investitsiyasi qiymatini qaytara olmasligi mumkin.

Portfel kompaniyalari tartibga solinadigan sektorlarda faoliyat yuritadi va O'zbekistonda keng ko'lamlı huquqiy va tartibga solish talablariga bo'ysunadi. Qonun yoki tartibga solishdagi o'zgarishlar, turlicha talqinlar, ruxsatnomalarning yo'qotilishi, sud ishlari, auditlar yoki muvofiqlikdagi nosozliklar ularning faoliyati, moliyaviy holati va istiqbollarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Portfel kompaniyalari,

shuningdek, odatdagi xo'jalik faoliyati davomida nizolar, sud jarayonlari, arbitraj va ijro xatarlariga duch kelishi mumkin.

Portfel kompaniyalari tajribali boshqaruv va malakali xodimlarga bog'liq. Bunday xodimlarni ushlab qolish, rag'batlantirish yoki ishga yollash imkoniyati bo'lmasligi yoki vorislikni rejalashtirishdagi kamchiliklar ularning strategik maqsadlariga erishish qobiliyatiga putur yetkazishi mumkin.

Bundan tashqari, Portfel kompaniyalari texnologiya va kiberxavfsizlik xatarlariga, jumladan ma'lumotlar sizib chiqishi, tovon puli talab qiluvchi zararli dasturlar (ransomware) hujumlari, tizim nosozliklari va texnologik eskirishga, shuningdek ekologik, ijtimoiy va boshqaruv xatarlariga, jumladan rivojlanib borayotgan ekologik standartlar, ish joyi va mehnat masalalari, boshqaruv talablari hamda korrupsiyaga qarshi muvofiqlik majburiyatlariga duchor.

Aksiyalar va Savdo bozoriga oid tavakkalchilik

Aksiyalarga investitsiya kiritish Aksiyalar bozori va O'zbekistondagi kengroq qimmatli qog'ozlar bozori bilan bog'liq tavakkalchiliklarni o'z ichiga oladi. Hozirda Aksiyalar uchun savdo bozori mavjud emas va ruxsat berilgandan so'ng Toshkent fond birjasida faol savdo bozori shakllanishi yoki saqlanib qolishiga hech qanday kafolat yo'q. Agar faol bozor shakllanmasa, bu Aksiyalarning likvidligi va bozor narxiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin va investorlar o'z Aksiyalarini Taklif narxida yoki undan yuqori narxda yoxud umuman sota olmasligi mumkin.

Bundan tashqari, Aksiyalarning bozor narxi Jamiyatning jami SAQiga yoki investor Aksiyalarni sotib olish uchun to'lagan narxga nisbatan chegirma bilan savdo qilishi mumkin hamda, jumladan, tahlilchilar izohlari, Jamiyat yoki uning Portfel kompaniyalari tomonidan e'lonlar, investorlar idrokining o'zgarishi, bozor likvidligi va umumiy iqtisodiy yoki siyosiy omillar natijasida sezilarli o'zgaruvchanlikka duchor bo'lishi mumkin.

O'zbekistondagi qimmatli qog'ozlar bozori rivojlangan bozorlar bilan solishtirganda kamroq rivojlangan bo'lib qolmoqda. Qimmatli qog'ozlar bitimlari bo'yicha hisob-kitob, kliring va ro'yxatga olish tartib-taomillari huquqiy noaniqlik, texnik qiyinchiliklar va kechikishlarga duchor bo'lishi mumkin; kapital bozorlarining faoliyat yuritishi bo'yicha huquqiy va tartibga solish asoslari, jumladan bozor manipulyatsiyasi va insayderlik savdosidan himoya choralari, yanada barqaror bozorlardagidek rivojlangan yoki izchil ijro etiladigan darajada emas. Ushbu omillar investorlar ishonchi, likvidlik va Aksiyalar bozoriga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Toshkent taklifidan keyin kelgusida Aksiyalarning sotilishi yoki bunday sotuvlar sodir bo'lishi mumkinligi haqidagi tasavvur Aksiyalarning bozor narxiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari, Jamiyat va Sotuvchi aksiyador ruxsatdan keyingi 180 kunlik aksiyalarni sotishni cheklash (lock-up) kelishuvlariga bo'ysunsa-da, ushbu cheklovlar odatiy istisnolarga ega va muddati tugaydi. Jamiyat, shuningdek, amaldagi qonunchilikka muvofiq kelgusida qo'shimcha Aksiyalar yoki boshqa qimmatli qog'ozlar chiqarishi mumkin, bu ishtirok etmaydigan mavjud aksiyadorlarning ulushini suyultirishi mumkin.

Xuddi shuningdek, agar biror Portfel kompaniyasi yangi qimmatli qog'ozlar chiqarsa va Jamiyat ishtirok etmasa, Jamiyatning ushbu Portfel kompaniyasidagi ulushi suyultirilishi mumkin, bu esa o'z navbatida Jamiyat portfelining sof aktivlar qiymati va Aksiyalar qiymatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Toshkent fond birjasining kotirovka ro'yxatida listing huquqini saqlab qolish uchun Jamiyat o'z Aksiyalarining, jumladan global depozitar tilxatlar shaklida, kamida 15% erkin muomaladagi ulushini saqlashi talab etiladi. Agar bu talab bajarilmasa, Toshkent fond birjasi listingni to'xtatib turishi yoki bekor qilishi yoxud Aksiyalarni o'z listing qoidalari bo'yicha boshqa toifaga o'tkazishi mumkin. Bunday har qanday harakat likvidlik va Aksiyalarning bozor narxiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Jamiyat kelgusida dividendlar to'lamaslikni tanlashi mumkin. Dividendlarni e'lon qilish va to'lash to'g'risidagi har qanday qaror amaldagi qonun va tijorat omillariga, jumladan Jamiyatning moliyaviy natijalari, taqsimlanadigan foydasi, likvidligi, pul ehtiyojlari va bozor sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, Jamiyat holding kompaniya bo'lganligi sababli, uning dividend to'lash qobiliyati Portfel kompaniyalaridan olgan taqsimotlariga bog'liq. Prezidentning 303-son qarorida 2030-yilgacha Portfel kompaniyalarining sof foydasining kamida 50%i amaldagi qonunchilikka rioya qilgan holda dividend sifatida taqsimlanishi nazarda tutilgan bo'lsa-da, ushbu asos saqlanib qolishiga yoki Portfel kompaniyalari yoki Jamiyat har qanday yilda yoki kutilgan miqdorlarda dividend to'lashiga hech qanday kafolat yo'q.

Ayrim yurisdiksiyalardagi Aksiya egalari kelgusidagi emissiyalar munosabati bilan, amaldagi qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonun talablari bajarilmaguncha yoki istisno mavjud bo'lmaguncha, qonuniy yoki shartnomaviy imtiyozli sotib olish huquqlarini amalga oshira olmasligi mumkin. Bundan tashqari, asosiy valyutasi so'm bo'lmagan investorlar xorijiy valyuta xatariga duchor bo'ladi, chunki Aksiyalar so'mda baholanadi, kotirovka qilinadi va savdo qilinadi hamda so'mning investorning asosiy valyutasiga nisbatan har qanday qadrsizlanishi investitsiya qiymatini kamaytirishi mumkin.

Toshkent fond birjasida Aksiyalar savdosi kunlik narx o'zgarishi limitlariga bo'ysunadi

Toshkent fond birjasi qoidalarga muvofiq, savdoning birinchi kunida Aksiyalar narx cheklovlarisiz savdoni boshlaydi. Ikkinchi savdo kunidan boshlab Toshkent fond birjasida Aksiyalar narxi amaldagi tayanch narxning $\pm 20\%$ i miqdoridagi kunlik narx o'zgarishi limitiga bo'ysunadi; bu tayanch narx odatda avvalgi savdo kunidagi yopilish aksiyasi narxi asosida belgilanadi (keyingi o'rinlarda - "**Kunlik narx limiti**"). Kunlik narx limiti Aksiya investorlarining istalgan savdo kunida o'zlari xohlagan narxda bitimlarni amalga oshirishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Bundan tashqari, Kunlik narx limiti Toshkent fond birjasidagi Aksiyalarning bozor narxi va London fond birjasidagi GDTlar savdo narxi nazarda tutadigan Aksiyalar narxi o'rtasidagi har qanday tafovutni yanada kuchaytirishi mumkin.

O'zbekistonga oid tavakkalchiliklar

Jamiyat va uning Portfel kompaniyalari O'zbekistonga katta darajada bog'liq. Shunga muvofiq, ularga O'zbekistonning suveren kredit profili, qarz barqarorligi, huquqiy va tartibga solish asosi, siyosiy va iqtisodiy sharoitlari hamda umumiy investitsiya muhiti ta'sir qiladi.

O'zbekiston kabi rivojlanayotgan bozorlarga investitsiya kiritish odatda rivojlangan bozorlarga investitsiya kiritishga nisbatan yuqoriroq darajadagi xatarlarni, jumladan huquqiy, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy xatarlarni o'z ichiga oladi. Rivojlanayotgan bozorlarga investorlar ishonchining kamayishi moliyalashtirish mavjudligini kamaytirishi va kapital qiymatini oshirishi mumkin.

Jamiyat va Portfel kompaniyalari O'zbekistonning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sharoitlaridagi o'zgarishlar, jumladan YAIM o'sishi, inflyatsiya, foiz stavkalari, valyuta kurslari, ishsizlik, aholining shaxsiy daromadlari va korporativ sektor moliyaviy holatidagi o'zgarishlardan salbiy ta'sirlanishi

mumkin. O'zbekiston mintaqaviy va global o'zgaruvchanlikka, jumladan geosiyosiy rivojlanishlar, tashqi shoklar va asosiy savdo hamkorlarining iqtisodiy ko'rsatkichlariga duchor bo'lib qolmoqda.

Rossiya va Ukraina o'rtasidagi davom etayotgan mojaro hamda ayrim Rossiya va boshqa kontragentlarga nisbatan joriy etilgan sanksiyalar O'zbekiston iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatgan va bunday ta'sir davom etishi mumkin. O'zbekistonning Rossiya va boshqa mintaqaviy hamkorlar bilan yaqin iqtisodiy aloqalarini hisobga olgan holda, sanksiyalar, kengaytirilgan sanksiya rejimlari, xatarlarni kamaytirish choralari, muvofiqlik yuklari, tranzaksiya kechikishlari va ta'minot zanjiri yoki moliyalashtirishdagi uzilishlar Jamiyat, Portfel kompaniyalari va ularning kontragentlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zbekiston sezilarli iqtisodiy va bozor islohotlarini, jumladan xususiylashtirish va liberallashtirish choralari amalga oshirmoqda. Bunday islohotlar to'liq amalga oshirilishiga yoki o'z maqsadlariga erishishiga hech qanday kafolat yo'q. Islohotlarning kechikishi, ortga qaytarilishi yoki muvaffaqiyatsiz amalga oshirilishi kengroq iqtisodiyot, investorlar ishonchi va Portfel kompaniyalarining operatsion muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

So'm o'zgaruvchanlik va qadrsizlanishga duchor. So'mning AQSH dollariga yoki boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan har qanday qadrsizlanishi xarajatlarni oshirishi, xorijiy valyutadagi majburiyatlar yukini ko'tarishi hamda talab, marjalar va rentabellikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, xorijiy valyutani liberallashtirish kelgusidagi cheklovlar yoki kapital nazorati orqali ortga qaytarilmasligiga hech qanday kafolat yo'q.

O'zbekiston inflyatsion bosimlarga duchor. Barqaror inflyatsiya xarid qobiliyatini pasaytirishi, xomashyo, ish haqi va moliyalashtirish xarajatlarini oshirishi hamda, ayniqsa oshgan xarajatlarni mijozlarga o'z vaqtida o'tkazish imkoniyati bo'lmagan hollarda, rentabellikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zbekiston iqtisodiyotiga xalqaro tovar narxlaridagi, xususan oltin, tabiiy gaz va neft narxlaridagi o'zgaruvchanlik ham sezilarli ta'sir qiladi. Tovar narxlaridagi o'zgaruvchanlik O'zbekistonning o'sishi, davlat daromadlari, to'lov balansi, inflyatsiya va kengroq iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi, buning oqibatida Portfel kompaniyalari va, o'z navbatida, Jamiyatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

SOLIQQA TORTISH

Quyidagi xulosa Taklif aksiyalarini sotib olish, ularga egalik qilish va ularni tasarruf etish bilan bog'liq ayrim asosiy O'zbekiston soliq masalalarini bayon etadi va ushbu hujjat sanasida amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asoslanadi. Quyidagi xulosa amaldagi qonunchilikdagi o'zgarishlarga, shuningdek O'zbekiston soliq organlari va sudlari tomonidan bunday qonunchilikni talqin qilish va qo'llashdagi o'zgarishlarga bo'ysunadi. Bunday o'zgarishlar ayrim holatlarda orqaga qaytuvchi kuchga ega bo'lishi mumkin.

Ushbu xulosa Taklif aksiyalarini sotib olish, ushlab turish yoki tasarruf etish to'g'risida qaror qabul qilish uchun ahamiyatli bo'lishi mumkin bo'lgan barcha soliq masalalarining keng qamrovli tavsifi bo'lishni da'vo qilmaydi hamda investorlarning barcha toifalariga nisbatan qo'llaniladigan soliq oqibatlarini qamrab olmaydi; ularning ayrimlari maxsus qoidalarga bo'ysunishi mumkin. Potensial investorlarga Taklif aksiyalarini sotib olish, ushlab turish va tasarruf etishning soliq oqibatlari, jumladan har qanday ikki tomonlama soliqqa tortishni oldini olish to'g'risidagi shartnomalarning qo'llanilishi va ta'siri yuzasidan, ularning fuqaroligi, rezidentligi, doimiy yashash joyi yoki tashkil etilgan mamlakat qonunlari va qoidalariga muvofiq, o'z professional maslahatchilari bilan maslahatlashish tavsiya etiladi. Investorlar zarur hollarda O'zbekiston soliqqa tortishi yuzasidan ham mustaqil maslahat olishlari lozim.

Potensial investorlar O'zbekiston soliq qonunchiligi, xususan qimmatli qog'ozlar bitimlari va transchegaraviy moliyaviy instrumentlar bo'yicha, rivojlanishda davom etayotgani va O'zbekiston soliq organlari tomonidan turlicha talqin qilinishi mumkinligi haqida ogohlantiriladi. Shunga muvofiq, O'zbekiston soliq organlari bu yerda bayon etilganlardan farq qiladigan pozitsiyalarni egallamasligiga hech qanday kafolat yo'q.

O'zbekiston soliq rezidentlarini soliqqa tortish

Taklif aksiyalarini tasarruf etishni soliqqa tortish

Agar istisno qo'llanilmasa, Taklif aksiyalarini (Toshkent fond birjasida savdo qilinadigan aksiyalarni) tasarruf etishdan olingan kapital daromadlari O'zbekiston rezidenti jismoniy shaxslar va O'zbekiston rezidenti yuridik shaxslar uchun soliqqa tortiladigan daromadni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining (keyingi o'rinlarda - **"Soliq kodeksi"**) 327-moddasini qo'llashda aksiyalarni tasarruf etishdan soliqqa tortiladigan daromad aksiyalarni tasarruf etish narxining bunday aksiyalarni sotib olish qiymatidan, shu jumladan sotib olish xarajatlari va ularni tasarruf etish bilan bog'liq xarajatlardan ortiq qismi sifatida aniqlanadi.

Ushbu maqsadlar uchun soliq to'lovchi tasarruf etilgan aksiyalar qiymatini aniqlash uchun izchil usulni (masalan, birinchi kirgan — birinchi chiqadi usuli yoki birlik qiymati / aksiya boshiga narx usuli) o'zining soliq hisob siyosatiga muvofiq qo'llashi talab etiladi.

Soliq kodeksi, shuningdek, soliq bazasini uyushgan qimmatli qog'ozlar bozorida savdo qilinadigan aksiyalar va boshqacha tarzda savdo qilinadigan aksiyalar uchun alohida aniqlashni talab qiladi. Qimmatli qog'ozlar (ya'ni aksiyalar) bilan bog'liq bitimlardan zararlar keyingi davrlarga o'tkazilishi mumkin; biroq bunday zararlar alohida ajratilgan bo'lib, faqat ayni turdagi qimmatli qog'ozlardan (ya'ni birjada savdo qilinadigan yoki birjadan tashqari savdo qilinadigan) olingan daromadlar bilan qoplanishi mumkin. O'zbekiston rezidenti yuridik shaxslar qimmatli qog'ozlar bo'yicha kapital daromadlarini o'zlarining jami yillik daromadlariga kiritishlari shart; bu daromad 15% stavkada

(banklar va ayrim boshqa subyektlar uchun 20%) foyda solig'iga (keyingi o'rinlarda - **"Foyda solig'i"**) tortiladi. Qimmatli qog'ozlarni tasarruf etishdan daromad olgan O'zbekiston rezidenti jismoniy shaxslar qimmatli qog'ozlar bo'yicha kapital daromadlarini o'z yillik daromadlariga kiritishlari shart; bu daromad 12% stavkada jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'iga (keyingi o'rinlarda - **"JShDS"**) tortiladi.

Toshkent fond birjasida savdoga qo'yilgan aksiyalarni yoki O'zbekistonda birjadan tashqari savdoda sotishdan olingan daromad foyda solig'idan (yuridik shaxslar uchun) va JShDSdan (jismoniy shaxslar uchun) ozod etiladi. Buning o'rniga, bunday aksiyalar sotuvchisi (emitent bundan mustasno) quyidagi bitimlar amalga oshirilganda qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi vakolatli davlat organiga yig'imlar to'lashi talab etiladi:

- aksiyalar bilan uyushgan birjadan tashqari savdo — bitim summasining 0,3%i stavkasida; va/yoki
- listingga kiritilgan aksiyalar bilan birja savdosi — bitim summasining 0,01%i stavkasida.

Dividendlarni soliqqa tortish

Jamiyat tomonidan Taklif aksiyalariga egalik qiluvchi yuridik shaxslar yoki jismoniy shaxslarga to'lanadigan dividend daromadi 5% manbada ushlab qolinadigan soliqqa tortiladi.

Biroq 2028-yil 31-dekabrgacha jismoniy shaxslar tomonidan Toshkent fond birjasida savdo qilinadigan aksiyalar, masalan Taklif aksiyalari, bo'yicha olingan dividend daromadi JShDSdan ozod etiladi, bu esa dividendlar bo'yicha amaldagi manbada ushlab qolinadigan soliq stavkasini amalda 0%ga kamaytiradi.

O'zbekiston norezidentlarini soliqqa tortish

Toshkent fond birjasida savdo qilinadigan aksiyalarni, masalan Taklif aksiyalarini, sotib oluvchi norezident shaxslar soliq maqsadlari uchun dastlabki ma'muriy qadam sifatida O'zbekistonda soliq identifikatsiya raqamini — jismoniy shaxslar uchun jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamini, yuridik shaxslar uchun esa soliq to'lovchining identifikatsiya raqamini — olishlari talab etiladi.

Norezident shaxslar Taklif aksiyalarini sotib olish, ularga egalik qilish yoki ularni tasarruf etishning o'zi sababli O'zbekiston soliq maqsadlari uchun O'zbekistonda rezidentga aylanmasliklari kerak. Shu sababli, O'zbekiston soliq qonunchiligiga ko'ra, O'zbekiston soliq maqsadlari uchun norezident bo'lgan va O'zbekistonda ro'yxatdan o'tgan ishtiroki bo'lmagan Taklif aksiyalari egalari faqat O'zbekiston manbalaridan olingan daromadlari bo'yicha soliqqa tortilishi, boshqa joydan olingan daromadlari bo'yicha emas, lozim.

Taklif aksiyalarining norezident xaridorlari bunday qimmatli qog'ozlarni sotib olishda O'zbekistonda soliqqa tortilmaydi. Biroq Soliq kodeksiga ko'ra, norezidentlar O'zbekistondagi doimiy muassasa orqali faoliyat yuritmasa, O'zbekiston manbalaridan olingan daromadlari manbada ushlab qolinadigan soliqqa tortiladi. Shunga muvofiq, Taklif aksiyalari bo'yicha to'lanadigan dividendlar va boshqa taqsimotlar quyida batafsil bayon etilganidek O'zbekistonda manbada ushlab qolinadigan soliqqa tortilishi mumkin.

Taklif aksiyalarini tasarruf etishni soliqqa tortish

Toshkent fond birjasida savdo qilinadigan aksiyalarni tasarruf etish soliqqa tortishdan ozod etiladi. Buning o'rniga, bunday aksiyalar sotuvchisi (emitent bundan mustasno) yuqorida bayon etilganidek qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi vakolatli davlat organiga yig'imga to'lashi talab etiladi.

Dividendlarni soliqqa tortish

Jamiyat tomonidan Taklif aksiyalariga egalik qiluvchi va O'zbekiston rezidenti bo'lmagan yuridik shaxslar yoki jismoniy shaxslarga dividendlar to'lanishi 10% manbada ushlab qolinadigan soliqqa tortiladi, agar ikki tomonlama soliqqa tortishni oldini olish to'g'risidagi shartnoma qo'llanilib, unga muvofiq ozod etish yoki kamaytirilgan stavka qo'llanilishi mumkin bo'lmasa.

Biroq 2028-yil 31-dekabrgacha:

- Taklif aksiyalariga egalik qiluvchi O'zbekiston norezidenti jismoniy shaxslar tomonidan olingan dividend daromadi JShDSdan ozod etiladi, bu Taklif aksiyalari bo'yicha dividendlar uchun amaldagi manbada ushlab qolinadigan soliq stavkasini amalda 0%ga kamaytiradi; va
- Taklif aksiyalariga egalik qiluvchi O'zbekiston norezidenti yuridik shaxslar tomonidan olingan dividend daromadi 5% stavkada manbada ushlab qolinadigan soliqqa tortiladi.

Istisno mavjud bo'lmaganida shartnoma himoyasi

Agar Soliq kodeksida nazarda tutilgan istisnolar mavjud bo'lmasa, O'zbekiston ikki tomonlama soliqqa tortishni oldini olish to'g'risida shartnoma tuzgan yurisdiksiya rezidentlari bo'lgan qimmatli qog'ozlarning norezident egalari amaldagi shartnoma shartlari bajarilishi sharti bilan kamaytirilgan manbada ushlab qolinadigan soliqni (xususan, dividendlar bo'yicha) yoki ozod etishlarni qo'llash huquqiga ega bo'lishi mumkin.

Xususan, bunday shartnomalar dividendlar bo'yicha manbada ushlab qolinadigan soliqning kamaytirilgan stavkalarini nazarda tutishi va kapital daromadlar bo'yicha soliqqa tortish huquqlarini investorning rezidentlik mamlakatiga ajratishi mumkin.

Shartnoma bo'yicha imtiyozlardan foydalanish talablari

O'zbekistonda ikki tomonlama soliqqa tortishni oldini olish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha imtiyoz quyidagi mexanizmlardan biri orqali olinishi mumkin:

- manbada imtiyoz — amaldagi shartnoma imtiyozlari to'lov vaqtida O'zbekiston soliq agenti (ya'ni Jamiyat) tomonidan qo'llanilganda; yoki
- qaytarish mexanizmi — soliq dastlab ichki stavka bo'yicha ushlab qolinadi va soliq norezidenti keyinchalik ortiqcha to'langan soliqni O'zbekiston davlat budjetidan qaytarish uchun murojaat qiladi.

Manbada shartnoma imtiyozini qo'llash uchun Taklif aksiyalarining norezident egasi O'zbekiston soliq agentiga quyidagilarni taqdim etishi lozim:

- tegishli xorijiy yurisdiksiyaning vakolatli organi tomonidan berilgan soliq rezidentligi sertifikatini (keyingi o'rinlarda - "SRS"); va
- talab etilganda, daromadning beneficial owner ekanini tasdiqlovchi qo'llab-quvvatlovchi hujjatlar.

SRSga tayanish uchun u:

Ushbu tarjima rasmiy tarjima hisoblanmaydi

- daromad to'lanadigan davr uchun amal qilishi;
- tegishli tarzda legallashtirilgan yoki apostil qo'yilgan bo'lishi (agar xalqaro kelishuvlar bo'yicha boshqacha ozod etilmagan yoki elektron tekshirish qabul qilinadigan bo'lmasa); va
- manbada shartnoma imtiyozini qo'llanishi uchun daromad to'lanishidan oldin taqdim etilishi lozim.

Shartnoma imtiyozining mavjudligi asosan talab qilinadigan qo'llab-quvvatlovchi hujjatlarning soliq agentiga o'z vaqtida taqdim etilishiga bog'liq.

Agar talab qilinadigan hujjatlar o'z vaqtida taqdim etilmasa:

- Jamiyat soliq agenti sifatida odatda soliqni amaldagi ichki stavka bo'yicha ushlab qolishi talab etiladi; va
- norezident investor keyinchalik O'zbekiston soliq organlari bilan qaytarish tartibi orqali ortiqcha soliqni qaytarib olishga urinishi mumkin.

Amaliyotda bunday qaytarishlarni olish ma'muriy jihatdan mashaqqatli bo'lishi mumkin va qaytarish muvaffaqiyatli olinishi bo'yicha hech qanday kafolat yo'q.

